

“Ammofos-Maxam” AJ ning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqida 2025-yil HISOBOTI

“Ammofos-Maxam” AJ korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish yuzasidan 2025-yillik hisobot quyidagicha ko‘rinishni o‘z ichiga oladi.

“Ammofos-Maxam” AJning aloqa kanallari, jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari orqali kelib tushadigan murojaatlarni qabul qilish uchun Ichki nazorat tuzilmasidan mas‘ul xodim tayinlangan bo‘lib, tegishli murojaat kelib tushganda mas‘ul xodim murojaatni tegishli Reyestrda ro‘yxatga oladi.

Shuningdek, mas‘ul xodim tomonidan xafta davomida kelib tushadigan murojaatlar (xabarlar) tahlil qilinadi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

O‘tgan davr maboynida “Ammofos-Maxam” AJda jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir bir qator murojaatlari kelib tushgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda tegishli qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘rganildi.

Boshqaruv raisi tomonidan jismoniy shaxslar hamda yuridik shaxslarning vakillari ham qabul qilinib, ularning bildirgan taklif va e‘tirozlari asosida tegishli tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

“Ammofos-Maxam” AJga, 2025-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarini o‘rganish natijalari bo‘yicha 2025-yil jamiyatning SRO va INTS bo‘limi xamda “Ishonch telefoni”ga jismoniy va yuridik shaxslardan jami **10 ta** (shudan: yuridik shaxslardan - **2 ta** va jismoniy shaxslardan - **8 ta**) murojaatlar kelib tushgan.

Ammofos-Maxam” AJ bo‘yicha quyidagicha ko‘rinishga ega:

- Ishga joylashish yuzasidan – **3 ta**;
 - uy xususiy lashtirilgani to‘g‘risida ma’lumotnoma so‘ragan – **2 ta**;
 - nafaqaga chiqish uchun ma’lumotnoma so‘ragan – **2 ta**;
 - uyini ta’mir lab berishda amaliy yordam so‘ragan – **1 ta**;
 - sanatoriyaga yo‘llanma so‘ragan – **1 ta**;
 - noturar ko‘chmas mulkni garovdan chiqarishni so‘ragan – **1 ta**;
- murojaatlar kelib tushgan.

Jamiyat ishonch telefoni orqali murojaat kelib tushmagan.

Shuningdek, korrupsiya xatarlari mavjud bo‘lgan yo‘nalishlar, xususan, xaridlar bo‘yicha, hamkorlar va iste’molchilarga maxsulotlarni yetkazib berish va xizmat ko‘rsatish, mineral o‘g‘itlarni xarid qilish masalalari va boshqa yo‘nalishlar ko‘rib chiqilib, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda,

“Ammofos-Maxam” AJda amalga oshiriladigan barcha jarayonlarni raqamlashtirish va “inson omili”ni kamaytirish orqali korrupsion holatlarning oldini olishga alohida ahamiyat berildi.

Korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun barcha turdagi aloqa kanallarining (*elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalar*) uzluksiz faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Ammofos-Maxam” AJ ning asosiy vazifalaridan bo‘lib, korrupsiya faktlariga doir barcha murojaatlar (xabarlar) qat‘iy nazoratga olinadi va tizimni korrupsiyasiz sohaga aylantirish bo‘yicha doimiy ravishda zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi.